

**MINTAQAVIY QIYMAT TARKIBI (MQT) SAVDO VA BOJXONA
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI HAMDA DIPLOMATIK
ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI VA UNING
O‘ZBEKISTONDA QO‘LLANILISHI IMKONIYATLARI**

Xalmuratov Sharapat Maxsetbay uli

Magistratura tinglovchisi, Bojxona instituti, Toshkent, O‘zbekiston.

e-mail: shara.medved@gmail.com

tel: +998 90 664 0405

Annotatsiya: Ushbu maqola mintaqaviy qiymat tarkibi (MQT) tushunchasini mintaqaviy ishlab chiqarish va savdo samaradorligini oshirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi. AQSh-Meksika-Kanada Kelishuvi (USMCA) misolida diqqatni jamlaydi. Tadqiqotda ayrim sohalarda mahsulotlar uchun 75% MQT talabini belgilash orqali qanday qilib iqtisodiy integratsiya va a‘zo davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni mustahkamlayotgani tushuntiriladi. Bundan tashqari, MQT doirasining O‘zbekistonda qo‘llanilishi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy qiymat tarkibi, USMCA, O‘zbekiston, bojxona samaradorligi, savdo siyosati, diplomatik aloqalar, matematik modellashirish.

**РОЛЬ РЕГИОНАЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ СТОИМОСТИ (РСС) В
ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТОРГОВЛИ И ТАМОЖНИ, А
ТАКЖЕ В УКРЕПЛЕНИИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ И
ВОЗМОЖНОСТИ ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.**

Халмуратов Шарапат Махсетбай ули

Магистрант, Таможенный институт, Ташкент, Узбекистан

e-mail: shara.medved@gmail.com

tel: +998 90 664 0405

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция региональной доли стоимости (РДС) как механизма повышения эффективности регионального производства и торговли, с акцентом на примере Соглашения между США, Мексикой и Канадой (USMCA). В исследовании объясняется, как установление требования РДС на уровне 75% для определенных продуктов способствует экономической интеграции и укрепляет дипломатические отношения между странами-участницами. Кроме того, анализируются возможности применения структуры РДС в Узбекистане.

Ключевые слова: региональная доля стоимости, USMCA, Узбекистан, эффективность таможен, торговая политика, дипломатические отношения, математическое моделирование.

**THE ROLE OF REGIONAL VALUE CONTENT (RVC) IN
ENHANCING TRADE AND CUSTOMS EFFICIENCY, AS WELL AS
STRENGTHENING DIPLOMATIC RELATIONS AND ITS APPLICABILITY
IN UZBEKISTAN.**

Khalmuratov Sharapat Maxsetbay uli

Master's student, Customs Institute, Toshkent, O'zbekiston.

e-mail: shara.medved@gmail.com

phone: +998 90 664 0405

Abstract: This article examines the concept of Regional Value Content (RVC) as a mechanism to enhance regional production and trade efficiency, focusing on the example of the United States-Mexico-Canada Agreement (USMCA). The study explains how establishing a 75% RVC requirement for certain products fosters economic integration and strengthens diplomatic relations among member countries. Furthermore, the potential application of the RVC framework in Uzbekistan is analyzed.

Keywords: regional value content, USMCA, Uzbekistan, customs efficiency, trade policy, diplomatic relations, mathematical modeling.

Kirish

Savdoning globallashuvi davlatlarni iqtisodiy raqobatbardoshlik va mintaqaviy integratsiyani oshirish uchun yangi mexanizmlarni qo'llashga undadi. Bunday mexanizmlardan biri mintaqaviy qiymat tarkibi (MQT) bo'lib, u mahsulot qiymatining ma'lum foizining belgilangan mintaqada ishlab chiqarilishi sharti bilan imtiyozli tariflardan foydalanish imkonini beradi [1]. 2020-yilda kuchga kirgan AQSh-Meksika-Kanada Kelishuvi (USMCA) avtomobil mahsulotlari uchun 75% MQT talabini joriy etib, ushbu yondashuvni namoyish etadi [2]. Ushbu tadqiqot USMCA doirasidagi MQTning ish mexanizmini, uning iqtisodiy va diplomatik ta'sirini va O'zbekiston savdo va bojxona tizimlariga moslashuvchanligini aniqlashga qaratilgan. Matematik model taklif qilib, maqola bojxona boshqaruvining foydalarini miqdoriy jihatdan baholaydi va O'zbekistonning asosiy sohalari uchun amaliy qo'llanilishini o'rganadi.

USMCA doirasidagi MQTni tushunish

MQT mahsulot qiymatining savdo kelishuvi a'zo davlatlarida yaratilishi kerak bo'lgan ulushini anglatadi, bu esa tarif imtiyozlaridan foydalanish huquqini beradi. USMCAda avtomobil mahsulotlari 75% MQTga erishishi kerak, ya'ni ularning qiymatining kamida 75% — materiallar, qismlar yoki mehnatdan kelib chiqadigan holda — AQSh, Meksika yoki Kanadada ishlab chiqarilishi lozim [3]. Masalan, 100,000 AQSh dollari qiymatidagi avtomobilning 75,000 dollari mintaqaviy manbadan bo'lishi kerak, qolgan 25% esa tashqi bozorlardan (*masalan, Xitoy yoki Yevropadan*) kelishi mumkin.

UNITED STATES MEXICO CANADA AGREEMENT (USMCA)											
CERTIFICATION OF ORIGIN											
1. CERTIFIER TYPE (INDICATE "X")							BLANKET PERIOD (MM/DD/YYYY) FROM: TO:				
IMPORTER		EXPORTER		PRODUCER							
2. CERTIFIER NAME, ADDRESS, PHONE, AND EMAIL					3. EXPORTER NAME, ADDRESS, PHONE, AND EMAIL						
NAME					NAME						
ADDRESS					ADDRESS						
COUNTRY PHONE					COUNTRY PHONE						
EMAIL					EMAIL						
TAX IDENTIFICATION NUMBER					TAX IDENTIFICATION NUMBER						
4. PRODUCER NAME, ADDRESS, PHONE, AND EMAIL					5. IMPORTER NAME, ADDRESS, PHONE, AND EMAIL						
NAME					NAME						
ADDRESS					ADDRESS						
COUNTRY PHONE					COUNTRY PHONE						
EMAIL					EMAIL						
TAX IDENTIFICATION NUMBER					TAX IDENTIFICATION NUMBER						
6. DESCRIPTION OF GOOD(S)		7. HTS		8. ORIGIN CRITERION		9. PRODUCER (YES/NO)		10. METHOD OF QUALIFICATION		11. COUNTRY OF ORIGIN	
SEE ATTACHED CONTINUATION SHEET(S)											

1-rasm: MQT ulishini aniqlash sertifikatı USMCA sertifikatı

USMCAda mahsulotlarning MQT foizini aniqlash maqsadida sertifikat shakli tasdiqlangan [9].

Sertifikat shakli: USMCA'da standart NAFTA sertifikatidan farqli o'laroq, qat'iy belgilangan shablon mavjud emas. Sertifikat importyor, eksportyor yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlanishi mumkin va quyidagi minimal ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- Sertifikat beruvchi haqidagi ma'lumotlar.
- Tovar tasnifi (TIF TN kodi).
- Tovar kelib chiqishining tasnifi (masalan, to'liq Shimoliy Amerikada ishlab chiqarilganmi yoki MQT asosida kelib chiqqanmi).
- MQT hisob-kitobi (agar qo'llaniladigan bo'lsa), masalan, olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati metodi (1-usul) yoki xarajat metodi bo'yicha foizlar. *(1-rasm)*

RVC hisoblash usullari

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati metodi:

$$RVC = [(Tovar\ qiymati - Mintaqadan\ tashqari\ materiallar\ qiymati) / Tovar\ umumiy\ qiymati] \times 100.$$

Xarajat metodi:

$$RVC = [(Sof\ xarajat - Mintaqadan\ tashqari\ materiallar\ qiymati) / Sof\ umumiy\ xarajat] \times 100.$$

Ushbu hisob-kitoblar sertifikatda yoki qo'shimcha hujjatlarda aniq ko'rsatilishi kerak.

Qo'shimcha hujjatlar: RVC mexanizmini tekshirish uchun quyidagi qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin:

1. Yuk hujjatlari (Avia yuk xati);
2. Hisob-fakturalar (Invoicelar) — transport xarajatlari va materiallar qiymatini tasdiqlash uchun;
3. Ishlab chiqarish jarayonini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, materiallar ro'yxati yoki BOM — Bill of Materials).

Mintaqaviy qiymat tarkibi (MQT) qoidasi xomashyodan tayyor mahsulot eksportiga o'tishni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqarish va ish o'rinlarini rivojlantirish, savdo balansini yaxshilash, diplomatik aloqalarni mustahkamlash hamda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish orqali iqtisodiy va strategik maqsadlarni kompleks tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi [4].

AQShda yig'ilgan Ford avtomobillari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak. Agar uning dvigateli Kanadada, shinalari Meksikada ishlab chiqarilgan bo'lsa va bu qismlar umumiy qiymatning 75% ini tashkil qilsa, u USMCA doirasida bojxona to'lovizsiz savdo qilish huquqiga ega bo'ladi. Ammo dvigatel Xitoydan keltirilsa va MQT 75% dan past bo'lsa, qo'shimcha tariflar qo'llaniladi.

Foydasi:

- **Ford uchun:** Import bojxona to'lovlarini tejash, AQSh bozorida raqobatbardosh narxga erishish.
- **Meksika uchun:** Mahalliy shina ishlab chiqarish o'sadi, ish o'rinlari ko'payadi.
- **Kanada uchun:** Dvigatel eksporti daromad keltiradi.

- **AQSh uchun:** Yig'ish jarayoni ish o'rinlarini saqlaydi, soliqlar hisobiga byudjet tushumlarini orttiradi va iqtisodiy integratsiyaga erishadi.
- **Iste'molchilar uchun:** Arzonroq avtomobil sotib olish imkonini yaratiladi.

O'zbekistonda MQTning potensial qo'llanilishi

O'zbekiston o'zining eksportga yo'naltirilgan sohalari rivojlanayotganligini hisobga olib, Markaziy Osiyo va undan tashqarida iqtisodiy mavqeyini mustahkamlash uchun MQT doirasidan foydalanishi mumkin. Quyidagi sohalarni asosiy yo'nalishlar sifatida aniqlash mumkin:

Avtomobilsozlik sanoati

Hozirgi holat: O'zbekistonning avtomobilsozlik sohasi, xususan "UzAuto Motors", Ravon va Chevrolet brendlari bilan mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirmoqda [5].

MQT qo'llanilishi: Rossiya kabi hamkorlar bilan savdo kelishuvi 60-75% mintaqaviy qiymat tarkibni talab qilishi mumkin, bu mahalliy qismlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi.

Foydasi: Qo'shni bozorlarga imtiyozli tariflar bilan eksportni oshirish va mahalliy ta'minot zanjirlarini mustahkamlash.

To'qimachilik va tikuvchilik sanoati

Hozirgi holat: Paxta yetishtirishda yetakchi bo'lgan O'zbekiston tayyor kiyim eksportini, ayniqsa Yevropa Ittifoqiga, oshirmoqda [6].

MQT qo'llanilishi: Turkiya davlati bilan 70-80% MQT ip, mato va kiyimlarning mahalliy ishlab chiqarilishini ta'minlashi mumkin.

Foydasi: Xom paxta eksporti o'rniga yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar eksport qilinadi.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari

Hozirgi holat: O'zbekiston meva-sabzavot va quritilgan mevalarni eksport qiladi.

MQT qo'llanilishi: Rossiya yoki Xitoy bilan kelishuvda qayta ishlangan mahsulotlar (*sharbat, konserva*) uchun 75% MQT talab qilinishi mumkin.

Foydasi: Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va ish o'rinlari ko'paytirish.

Taxminiy ssenariy

Qozog'iston va Turkmaniston bilan "Markaziy Osiyo Savdo Zonasi" tuzilib, 70% MQT qo'yilsa: O'zbekiston to'qimachilik, Qozog'iston metall, Turkmaniston logistika ta'minlaydi, natijada Rossiya yoki Xitoyga eksport hajmi ortadi.

O'zbekiston bojxona tizimida MQT joriy etilishi importni kamaytirib, eksportni oshirish orqali daromadni optimallashtirishga, kelib chiqish tekshiruv standartlashtirilishi bilan bojxona qiymatini aniqlash va rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirishga [7], shuningdek, mintaqaviy bojxona idoralari bilan hamkorlikni kuchaytirib, eksport hajmi o'sishi evaziga iqtisodiy rivojlanishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

MQT va bojxona ta'sirining matematik modeli

MQT'ning ta'sirini miqdoriy baholash uchun matematik model taklif qilinadi:

Asosiy o'zgaruvchilar

- UQ: Mahsulotning umumiy qiymati (masalan, 20,000 AQSH).
- MQ: Mintaqaviy qiymat (masalan, 14,000 AQSH).
- TQ: Mintaqadan tashqari qiymat (masalan, 6,000 AQSH).
- IMS: Import bojxona stavkasi (masalan, 10%).
- T: MQT chegarasi (masalan, 75%).
- BD: Bojxona daromadi.

RVC hisoblash

$$MQT = \frac{MQ}{UQ} \times 100$$

Misol: $MQT = (14000/20000) \times 100 = 70\%$. Agar $MQT \geq T$ imtiyozli tariflar qo'llanilmaydi.

$$BD = (TQ \times IMS)$$

$$BD = (6000 \times 0.1) = 600 \text{ AQSH}$$

Eksport 100 tonna bo'lgan bo'lsa va har bitta tonnasiga 10 AQSH dollardan eksport yig'imi bo'lsa jami eksport uchun 1000 AQSH dollar miqdorida eksport uchun yig'im undiriladi.

$$\text{Jami BD} = 1600 \text{ AQSH dollar}$$

Bojxona daromad modeli

$$BD = (TQ \times IMS) + (Eksport \text{ hajmi} \times Eksport \text{ to'lovi})$$

Agar:

$$MQ = 16000 \text{ AQSH}$$

$$TQ = 4000 \text{ AQSH}$$

$$UQ = 20000 \text{ AQSH}$$

$$MQT = (16000 / 20000) \times 100 = 80\%$$

Agar $MQT \geq T$ imtiyozli tariflar qo'llaniladi. (0%)

$$BD = (4000 \times 0) + (150 \times 10) = 1500$$

Talqin

Model shuni ko'rsatadiki, TQ kamayishi bojxona daromadini pasaytirsada, eksport hajmining oshishi va ichki ishlab chiqarishning rivojlanishi bu yo'qotishni qoplaydi va umumiy mamlakatda yaratilgan qiymat hisobiga davlatning umumiy daromadlar qismini oshiradi.

Xulosa

USMCA'da misol qilingan MQT mexanizmi mintaqaviy ishlab chiqarish, savdo samaradorligi va diplomatik aloqalarni targ'ib qilish uchun mustahkam asos yaratadi. O'zbekiston uchun uning qo'llanilishi eksportni diversifikatsiya qilish, sanoat salohiyatini oshirish va mintaqaviy savdo tarmoqlaridagi rolini yuksaltirishi mumkin. Taklif qilingan matematik model bojxona foydalarini, jumladan daromad o'sishi yoki kamayishini vizual ko'rish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. World Trade Organization (WTO), "Rules of Origin", 2023.
2. United States-Mexico-Canada Agreement (USMCA), Chapter 4: Rules of Origin, 2020.
3. Office of the United States Trade Representative, "USMCA Fact Sheet: Autos," 2020.
4. Baldwin, R., "Global Supply Chains: Why They Emerged, Why They Matter," Economic Policy, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi, "Sanoat ishlab chiqarish statistikasi," 2022.
6. International Trade Centre (ITC), "Uzbekistan Textile Export Report," 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi, "Bojxona jarayonlari raqamlashtirish strategiyasi" 2023.
8. Anderson, J.E., "Trade Costs and Regional Integration," Journal of Economic Integration, 2018.
9. URL: <https://www.usmcacertificate.com>